






29. Koordinata burchagi

Yondosh mavzu:
Yetkazib berish

Koordinatali burchak,
yo'l, vaqt va masofa




1. To'g'ri burchaklarni ifodalovchi harflardan qanday so'z hosil bo'ldi?
Bu yondosh mavzuga qanday bog'liq?




2. Jasur Akmalga savdo markazidan sovg'alalar sotiladigan do'konni qanday topish mumkinligi haqida ma'lumot yozdi va savdo markazining rejasini chizdi. Ma'lumotdan foydalanib, ushbu do'konning tartib raqamini aniqlang.

Savdo markaziga kiraverishda darhol o'ng tomonda sut bo'limi, chap tomonda esa dorixona bo'ladi. Sut do'koni yonidan o'ting va undan keyin yana o'ng tomonda siz don mahsulotlari: bug'doy, arpa, suli sotiladigan kichik do'konni ko'rasiz. Biroz keyinroq o'ng tomonda eng katta bo'lim – supermarket joylashgan. Supermarket kirishiga qaragan holda turing. Chap tomoningizda qizil belgili do'kon bo'ladi. Ana shu sovg'a do'koni.




Obyekt aynan qayerda turganini aniqlash uchun tekislikda ikkita perpendikular koordinata nurlari yasaladi. Bu ikki nur tekislikdagi har bir nuqtaning aniq manzilini aniqlash imkonini beradi.

Koordinata nurlari yasalgan tekislik koordinata burchagi deyiladi.



3. Har bir shaxmat donasining koordinatalarini aniqlang.



4. Koordinata burchagini chizing. Har bir nurda 2 katakchani birlik kesma sifatida oling.

- Unda $A(2; 2)$, $B(6; 2)$, $C(2; 5)$ nuqtalarni belgilang. Barcha nuqtalarni kesmalar bilan tutashtiring. Qanday shakl hosil bo'ldi?
- Bu shaklning burchaklari qanday (o'tkir, to'g'ri, o'tmas) bo'ladi?
- Bu shaklning tomonlarini o'lchang va perimetrini toping.
- Bu shaklning yuzini topa olasizmi?



5. Jo'natmani yuk mashinasida yetkazib berish uchun 4 kun ketadi. Jo'natmalarni samolyotda yetkazib berish 16 marta tezroq amalga oshadi. Jo'natmani samolyotda yetkazib berish qancha kam vaqtni oladi?

29. Koordinata burchagi



6. Har bir qatnov uchun sarflangan vaqtni taqqoslang.



$$v = 64 \text{ km/h}$$

$$S = 448 \text{ km}$$



$$v = 6 \text{ km/h}$$

$$S = 72 \text{ km}$$

qanchaga
ortiq (kam)?



7. Matematik tilda yozing. Hisoblang.

- a) 781 va 6 sonlari ko'paytmasi bilan 12 450 sonining yig'indisi.
- b) 23 400 va 6 sonlari bo'linmasi bilan 1 659 sonining ayirmasi.
- d) 4 580 va 3 976 sonlari ayirmasi bilan 40 sonining ko'paytmasi.
- e) 42 300 soni bilan 13 285 va 7 865 sonlari yig'indisining bo'linmasi.



10. Akmal qishloqdagi buvisiga bir quti limon jo'natdi. To'la qutining massasi 25 kg bo'ldi. Limonlarning yarmi yeyilgach, buvi yarim bo'sh quti og'irligini o'lchadi. Endi uning massasi 15 kg chiqdi. Bo'sh qutining massasi qancha?



11. Pitsa yetkazib beruvchi kishi ertalab 5 soatda 160 km, kechqurun esa 7 soatda 189 km yo'l bosib o'tdi. U qachon tez harakatlangan: ertalabmi yoki kechqurunmi va uning tezligi qanday o'zgargan?



12. Misollarni yeching va yetkazib berish bilan shug'ullanadigan odamlarning kasblarini aniqlang.

$$12\,915 : ((60\,000 - 22 \cdot 804) : 24 - 1\,700) \cdot 6$$

A 3 463

K 17 688

R 1 230

U 42 312

E 205

L 77 688

R 1 763

Y 63

$$927 + 108 : 12 - (230 - 14 \cdot 8) \cdot 7 + (900 - (3 \cdot 19 + 41))$$

D 9

K 118

O 110

S 57

E 802

L 44

P 98

T 936

I 826

N 182

R 912

E 112